

**MAKTABGACHA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY
TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**

Musulmonova Viloyat Abduvaliyevna

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti,

Fayziyev Mirzaali Asfandiyorovich

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti pedagogika kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng birinchi bosqichi bo'lib, unda bola ham jismoniy ham aqliy kamol topadi. Bolaning ta'lim olishining poydevori, asoslari shakllanadigan bosqichidir. Maqolada bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida Finlandiya tajribasi asosida sifat va samaradorlikni oshirish uchun amalga oshirish mumkin bo'lgan metodlar, jarayonlar, o'ziga xos usullar tahlil etilgan va takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim, Finlandiya, samaradorlik, sifat, metod, usul.*

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotga joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quv metodik adabiyotlar, o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim muassasalarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021- yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ, 2017-yil 9-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ, 2017-yil 30-sentabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF Farmoyishi shular jumlasidandir. Bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini o'rganish yuzasidan alohida adabiyotlar, tadqiqot ishlari juda kam, bu boradagi manbalarning faqatgina elektron resurslari mavjud bo'lib, ularni ham internetning turli veb saytlaridan topib, tarjima qilib o'rganish mumkin. Masalan, bu mavzuda B.E.Parmonov, I.G'.Mamajonov, R.Mamatov, M.X.Qilichovalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Jumladan B.E.Parmonov "Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari" maqolasida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini yoritgan. Buyuk Britaniya, Rossiya federatsiyasi, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarining ilg'or tajribalarini tahliliy o'rgangan.

I.G'Mamajonov, R.Mamatovlar esa "Germaniya davlati ta'lim tizimi"ni o'rganishda qisman maktabgacha ta'lim tizimiga oid ma'lumotlarni kiritib o'tgan.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari O'zbekiston vatanining har bir o'sib kelayotgan farzandini ham jismoniy, ham ma'naviy ham aqliy har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdan iborat. Xalqimizning qadriyatlarini ularning ongiga singdirib, bilimga bo'lgan ehtiyojlarini kuchaytirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirib boorish lozim. Bu bosqichda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Endilikda Respublikamizdagi 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan barcha ta'lim olishga layoqati bo'lgan bolalar davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 1 yillik maktabgacha tayyorlov guruhida boshlang'ich sinflarga tayyorlanadi va ularga sertifikat beriladi. Bu jarayon rivojlangan mamlakatlarda esa ancha ilgari boshlanadi. Masalan, Italiyada bolalar 3 yoshdan 6 yoshgacha maktabga tayyorlanadilar. Bu jarayon davlat bog'chalarida va xususiy katolik bog'chalarida amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyada esa 1988-yilda «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni kuchga kirgan. Unda nafaqat ta'lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta'lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. Finlandiya davlatida ham bolalarni maktabga majburiy bepul tayyorlash guruhlari mavjud. Shuning uchun ham majburiy ta'limda o'qitishni boshlash muddati Yevropada engerta deb hisoblanadi. Bolalarni maktabga tayyorlash – bolalar hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan murakkab, ko'p qirrali vazifadir. Uni hal qilishda bir qator jihatlarni ajratib ko'rsatish odatiy holdir. Birinchidan, kelajakda muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosi bo'lgan bolaning shaxsiyati va uning bilim jarayonlarining uzluksiz rivojlanishi, ikkinchidan, boshlang'ich maktabda yozish, o'qish va hisoblash elementlari kabi ko'nikma va qobiliyatlarni o'rgatish zarurati. Maktabga tayyorlik bu – jismoniy, aqliy, ijtimoiy va bolaning sog'lig'iga putur yetkazmasdan maktab o'quv dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan bolaning rivojlanishi darajasidir. Shuning uchun "o'qishga tayyorlik" tushunchasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: fiziologik tayyorlik – jismoniy rivojlanishning yaxshi darajasi; Psixologik tayyorlik – bilim jarayonlarining yetarlicha rivojlanishi (diqqat, xotira, fikrlash, idrok, tasavvur,

sezgi, nutq), o'rganish; ijtimoiy tayyorlik – tengdoshlar va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyati. Zamonaviy jamiyat o'z kuchini insoniyat manfaati yo'lida yo'naltiradigan ijodiy, oddiy odamlarni talab qiladi. Shu munosabat bilan zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi - ijodiy, mustaqil va erkin shaxsni tarbiyalashdir, chunki kelajakning rivojlanishini belgilovchi shaxs bu ijodkorlikdir. Prezident qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan va unda quyidagicha vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi: maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish.

Maktabgacha pedagogikaning vazifalari:

-Maktabgacha ta'lim sohasidagi pedagogik muammolarni hal qilish; maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olish ehtiyojini, o'qishga qiziqish, kitob o'qish, maktabga borish hissiyotini shakllantirish; bolalar tarbiyasida mustaqil va erkin fikrlashga o'rgatuvchi ilg'or metodlarni qo'llash; bolalarga yuksak odob, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni mentalitetimiz asosida o'rgatish.

Finlandiya davlatida ham maktabgacha ta'lim boshqa davlatlarga qaraganda birmuncha rivojlangan. Bu davlatda xam davlat va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari bor. Qisqa muddatli guruhlar ham tashkil etilgan. Finlandiyada maktabgacha ta'limda har bir mashg'ulotda yangi metodlar qo'llaniladi. Mashg'ulot yakunida har bir metod samarasi tekshiriladi. Masalan, baland ovozda ertak, hikoyalar o'qib berishadi. Bu bolaning tasavvurini shakllantiradi. Dunyoda bugungi kunda Finlandiya ta'limi olg'a yurmoqda. Finlandiya maktabgacha ta'limida har bir bolaga ta'lim berishda individuallik, amaliylik, ixtiyoriylik, mustaqillik usullaridan foydalaniladi. Bu usullarni O'zbekiston maktabgacha ta'limida qo'llasak maktabgacha ta'lim yanada rivojlanishiga olib keladi.

Bolalarga ta'lim berish jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi: Ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, o'yin metodlari. Kuzatish tushuntirish mashq didaktik o'yinlar ko'rsatish hikoya qilish mustaqil ish harakatli o'yinlar tvdan foydalanish so'zlab berish oddiy tajriba mashqli o'yinlar o'qib berish inssenirovkalar suhbat.

Kuzatish metodi bolalarni tevarak-atrof bilan tanishtirish imkonini beradi. Bunda bolalar ko'rish, eshitish, sezish idroklari orqali bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, asosan, yangi bilim berishda qo'llaniladi. Kuzatish — bolalarning narsa, voqealarning ma'lum maqsadi bilan rejali idrok etishidir. Bu usul ma'lum obyektlarni kuzatishda yetakchi o'rinni egallaydi. Namoyish etish metodi. Bu metodda tarbiyachi bolalarga narsaning o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Kuzatish so'z bilan qo'shib olib boriladi. Bu asosan bevosita kuzatib, ko'rib bo'lmaydigan narsalar bilan tanishtirishda qo'llaniladi. Masalan, hayvonlar, o'simliklar hayoti bilan tanishtirish. Texnikaviy vositalardan foydalanish MTMda ta'lim jarayonini qiziqarliroq o'tkazishni ta'minlaydi. Tevarak-atrof bilan tanishtirish imkoniyatini kengaytiradi. Texnikaviy vositalardan tarbiyachi katta va tayyorlov guruhlarida foydalanadi. Kichik guruhlardan boshlab bolalarga hikoyalarga ishlangan suratlar ko'rsatiladi. Bu buyum va narsalarni izchillik bilan idrok etish imkonini beradi va sinchkovlik hislarini o'stiradi. Hikoya qilib berish metodida materialni aniq, obrazli, ta'sirchan bayon qilinadi. O'rta guruhdan boshlab badiiy asarlarni ifodali o'qib beriladi. Bu bolalarga ta'lim berishda va ularning aqliy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoya qilib berish metodi mustaqil metod sifatida qo'llaniladi.

Suhbat metodi. Suhbat maktabgacha ta'lim tashkilotida muhim o'rinni egallaydi. Tarbiyachi bolalar bilim va amaliy tajribalariga suyanib, savollardan foydalangan holda ularni yangi bilimlarni egallashiga, mustahkamlashiga harakat qiladi. «Suhbat 3—4 yoshli bolalar bilan o'tkazilmaydi. 4—5 yoshli bolalar bilan ham suhbat mustaqil mashg'ulot sifatida o'tkazilmaydi. Bu yoshda kuzatish qisqa suhbat bilan qo'shib olib boriladi. 6 yoshdan boshlab suhbat mustaqil mashg'ulot tarzida o'tkazilishi mumkin».

Amaliy metod. Bu metod tarbiyachiga bolalarning turli-tuman amaliy faoliyatlarini tashkil etishga, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallab olishga yordam beradi. Bu metod orqali bola buyumlarning o'ziga tanish bo'lmagan xususiyatlarini bilib oladi. Tarbiyachi amaliy mashg'ulotlarda bolalarning oldiga vazifa qo'yib, bolalardan mashq qilishni talab etadi. Shular orqali bola bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladi. O'yin metodi didaktik vazifani tushunarliroq, ta'limni qiziqarli qilib tashkil etishga yordam beradi. O'yin metodi bolalarning ixtiyoriy diqqatlarini oshiradi, bola irodasini, ijodiy fikrini rivojlantiradi. Bola ijodiy o'yinda aqliy jihatdan tarbiyalanadi va rivojlanadi. Kichikintoylar o'ynaydigan sujetli o'yinlarning asosiy mazmuni — buyumlar bilan bajariladigan xilma-xil harakatlarni tasvirlashdir. Bunday o'yinlar jarayonida bolalar buyumlardan foydalanish, ular bilan amallar bajarishning ijtimoiy mustahkamlangan usullarini o'zlashtirib oladilar. Bunda harakatlarni umumlashtirish va bolaning ongida ularni aniq bir buyumdan ajratish jarayoni ro'y beradi. Bolaning rivojlanishiga qarab, ularning ijodiy o'yinlari tobora rejali xususiyat kasb etadi: bolalar o'yinning mazmuni haqida,

o'yinchoqlardan foydalanish va h.k.lar to'g'risida kelishib oladilar. Shu yo'l bilan o'yin davomida bolaning rivojlanishi uchun muhim bo'lgan tafakkurning rejalashtiruvchi vazifasi tarkib topadi. Bolaning aqliy tarbiyasida ijodiy o'yinlar bilan bir qatorda didaktik o'yinlar ham katta o'rin egallaydi. Bunday o'yinlar tayyor mazmunga va aniq qoidalarga ega. Juda ko'p xalq o'yinlari avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Pedagoglar tomonidan ham ko'pgina o'yinlar ishlab chiqilgan. Didaktik o'yinlar deb nomlanishining o'zi ham bu o'yinlarning maqsadi bolalarni aqliy rivojlantirishdan iboratligini bildiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'limni rivojlantirishda xalqaro davlatlar tajribalaridan foydalanish o'z samarasini bermoqda. Shunday ekan Finlandiya davlatining ta'lim-tarbiya tajribasini O'zbekiston maktabgacha ta'limiga olib kirish uning yanada rivojlanishiga, bolalarning maktab ta'limiga har tomonlama tayyor bo'lishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alijonova Gulsanamhon Umidjon qizi, Karimova Sarvinoz Ravshanjon qizi. Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti «Ingliz tili yo'nalishi» III-bosqich talabalari. Maktabgacha yoshdagi ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy usullari. Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 7 Uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7247496>

2. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-ta-lim-tarbiya-berishning-zamonaviy-usullari/viewer>

3. Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi (Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti, Farg'ona davlat universiteti magistranti). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslari. Science and innovation international scientific journal volume 1 Issue 7 Uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6578549>

4. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkilotlarida-bolalarni-maktab-ta-limiga-tayyorlashning-pedagogik-asoslari/viewer>

5. Uldona Narziboyevna Ravshanova (Termiz davlat pedagogika instituti magistranti). Maktabgacha katta yoshdagi bolalar faolligini shakillantirishda o'yinlardan foydalanish yo'llari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1. –B. 396-401. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-katta-yoshdagi-bolalar-faolligini-shakillantirishda-o-yinlardan-foydalanish-yo-llari/viewer>

6. Saipova Mexrixon (Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti, "Amaliy psixologiya" kafedrasida stajyor o'qituvchisi), Ergasheva Gulasalxon (Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi). Maktabgacha ta'limda psixologik xizmatning ustuvor vazifalari. Konferensiya 2022, iyun. –B. 15-20

7. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-limda-psixologik-xizmatning-ustuvor-vazifalari/viewer>

8. Dilorom Jaloliddinova Rashidova (Tashkent shahar Yunusobod tumani Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori). Bolalarni maktabga tayyorlashning sifat va samaradorligini oshirish omillari. Scientific progress. Volume 3 | Issue 2 | 2022 ISSN: 2181-1601. –B. 416-420

9. <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalarni-maktabga-tayyorlashning-sifat-va-samaradorligini-oshirish-omillari/viewer>

10. Kazakova Gulchexra Davronovna (Namangan shahar 27-umumta'lim maktabi). "O'quvchilik" mavqeiga o'tish davrining o'ziga xos inqirozlari // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (SI) II/2020 ISSN 2181-063X. –B. 180-184

11. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilik-mavqeiga-o-tish-davrining-o-ziga-xos-inqirozlari/viewer>

12. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2016. 46-b.